

INTERFAOL TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TASHKILOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Seitmuratova Venera Jumamuratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası katta o'qituvchisi

veneraseitmuratova7907@gmail.com

Xaydarova Nigora Umurzakovna,

Sirtqi ta'lim bo'limi 4-kurs talabalari

Abdurasulova Amina Nematillo qizi,

Sirtqi ta'lim bo'limi 4-kurs talabalari

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18445047>

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol ta'lim resurslaridan samarali foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari atroflicha yoritib berilgan. Tadqiqot davomida bolalarning tabiatga bo'lgan ongli va mas'uliyatli munosabatini qaror toptirish, ularni ekologik faoliyatga jalb etish hamda ekologik madaniyatni izchil rivojlantirishda interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim vositalarining o'rni chuqur tahlil qilingan.

Maqolada interfaol o'yinlar, multimedia materiallari, vizual va audio resurslar, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar orqali bolalarning ekologik bilimlarini boyitish, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Bundan tashqari, ekologik tarbiya jarayonida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning samarali usullari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalari interfaol ta'lim resurslaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, mas'uliyat va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari, tarbiyachilar hamda ekologik tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun muhim amaliy va metodik ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim resurslari, maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik tashkilotchilik ko'nikmalari, ekologik madaniyat, interfaol metodlar, multimedia vositalari, ekologik ta'lim, bolalar faoliyati.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются вопросы формирования и развития экологических организаторских навыков у детей дошкольного возраста на основе использования интерактивных образовательных ресурсов. В процессе исследования подробно анализируется роль интерактивных методов, инновационных педагогических технологий и современных средств обучения в формировании осознанного и ответственного отношения детей к природе, организации экологической деятельности и развитии экологической культуры.

Особое внимание уделяется использованию интерактивных игр, мультимедийных материалов, визуальных и аудиоресурсов, а также практических занятий как эффективных средств повышения экологических знаний, умений и навыков детей. В статье показаны пути развития у дошкольников инициативности, самостоятельного мышления и навыков работы в коллективе с учетом их возрастных и психологических особенностей.

Результаты исследования подтверждают, что применение интерактивных образовательных ресурсов способствует формированию экологического сознания, ответственности и организаторских способностей у детей дошкольного возраста. Материал статьи представляет практическую и методическую ценность для педагогов дошкольных

образовательных организаций, воспитателей и специалистов, занимающихся экологическим воспитанием.

Ключевые слова: интерактивные образовательные ресурсы, дошкольное образование, экологическое воспитание, экологические организаторские навыки, экологическая культура, интерактивные методы.

Annotation. This article comprehensively examines the issues of developing ecological organizational skills in preschool children through the effective use of interactive educational resources. The study analyzes the role of interactive methods, innovative pedagogical technologies, and modern teaching tools in fostering a conscious and responsible attitude toward nature, organizing environmental activities, and developing ecological culture among young learners.

Special attention is given to the use of interactive games, multimedia materials, visual and audio resources, as well as practical activities as effective means of enhancing children's environmental knowledge, skills, and competencies. The article highlights approaches to developing initiative, independent thinking, and teamwork skills in preschool children while taking into account their age-related and psychological characteristics.

The research findings confirm that the use of interactive educational resources has a positive impact on the formation of ecological awareness, responsibility, and organizational skills in preschool-aged children. The article is of significant practical and methodological value for preschool educators, teachers, and specialists involved in environmental education.

Keywords: interactive educational resources, preschool education, environmental education, ecological organizational skills, ecological culture, interactive methods.

Kirish. Bugungi kunda jahonda kechayotgan jadal taraqqiyot, iqtisodiy o'sish hamda mamlakatimizning boshqa davlatlar bilan teng raqobatlashishi uchun kelajak avlodi bo'lgan bolalarni yoshlikdan kreativ fikrlaydigan, ijodkor, o'z qiziqishlariga ega, shu bilan birga tabiatni sevuvchi va uni asraydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik yoshdagi bolalarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi, ruhan va jismonan sog'lom ulg'ayishi, intellektual va aqliy jihatdan yetuk, kelajakda mustaqil fikr va aniq pozitsiyaga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim vazifalar belgilab berilmoqda. Ushbu vazifalar "Ilk qadam" davlat dasturi asosida amalga oshirilib, jamiyat hayotida o'z samarasini ko'rsatmoqda [1:52].

Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion usullarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda filmlar, television filmlar qollaniladi. Ularning yordami bilan tarbiyachi bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi - o'simliklar va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, kattalar mehnati, tabiatda uzoq vaqt davomida sodir bo'ladigan hodisalarni ko'rsatish haqida g'oyalarni shakllantiradi [2:157-b.]. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyaning barcha turlari bilan bir qatorda ekologik tarbiyani shakllantirish muhim sanaladi. Ularga tabiat haqidagi bilimlarni kengaytirish, atrof-muhitni asrashga o'rgatish, tirik mavjudotlarni himoya qilish, daraxt va o'simliklarga g'amxo'rlik qilish, chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash, uy sharoitida suv, elektr

energiyasi va gazni tejash kabi ko'nikmalarni singdirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tabiat — inson hayoti uchun bebaho ne'matdir. Shuning uchun uni muhofaza qilish, yashil hududlar barpo etish, ekologik muhit yaratish, daraxt va o'simliklar sonini ko'paytirish, hayvonot olamiga mehr bilan munosabatda bo'lish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish haqidagi bilimlarni bolalarga maktabgacha davrdanoq berish juda muhimdir. Bu bilimlarni bolalar yoshiga mos bo'lgan ekologik interfaol raqamli o'yinlar orqali yetkazish samarali hisoblanadi. Chunki zamonaviy rivojlanish, raqamli texnologiyalarga qiziqishning ortishi bolalarni ta'lim jarayoniga raqamli o'yinlar orqali jalb etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda o'rganilayotgan ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishlari va bilimlarni o'rganishlari uchun tarbiyalanuvchilarning e'tiborini jalb qilish lozimdir. Bunday natijaga faqat yuqori sifatli, qulay, yorqin vizual materiallar tufayli erishishi mumkin. Vizual texnologiya - bolaning e'tiborini jalb qilishga imkon beradigan, diqqatini jalb qiladigan va o'z navbatida materialni osonlik bilan o'zlashtirishi hamda yaxshiroq eslab qolishiga imkon beradigan vositadir [3:102-b.]. Maktabgacha ta'lim uchun yaratilgan avvalgi faoliyat natijalaridan farqli tarafi bunda, yangi pedagogik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni (masalan interfaol ta'lim resurslarini: mobil ilova, interfaol mashg'ulotlar va o'yinlar) orqali yangi yondashuv usullari va bolalarda ekologik ongini shakllantirish uchun yangi metodlar joriy qilinadi. Masalan: o'yinda bola daraxtlarni ekish, sug'orish va chiqindilarni to'plash, hayvonlar uchun joy tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Bola ushbu topshiriqlarni to'g'ri va mukammal bajarsa ball yig'ib boradi. Bunday o'yinlar orqali bolada tabiatga degan mehr muxabbat kuchayadi va shunga uxshash mazmunda interfaol mashg'ulotlar yoki o'yinlar yaratiladi. Bunday interfaol mashg'ulotlar yoki o'yinlar bola tafakkuriga ta'sir qiladigan, ularni qandayda bir ijodiy fikr yuritib, javob berishga undaydigan bo'ladi.

Vizual yordam vositalaridan, masalan, illyustratsiyalar, videolar va interaktiv hikoyalardan foydalanish tushunishni va qiziqishni oshiradi. Tarbiyachilar o'qiladigan matnlarni tabiat hodisalari yoki yovvoyi hayvonlarning hayotini aks ettiruvchi videolar bilan boyitishlari mumkin. Rol o'ynashga asoslangan hikoyalar bolalarga tabiat haqidagi ertaklar qahramonlari roliga kirish imkonini beradi, bu esa ijodkorlikni rivojlantiradi va ekologik mavzularni mustahkamlaydi. Bolalar bilan birgalikda tabiat unsurlarini o'z ichiga olgan original hikoyalar yaratish ularga ijodiy jihatdan faol ishtirok etish imkonini beradi va yangi o'rganilgan tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi [4:259-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qo'llangan asosiy metodlar quyidagilardan iborat: ko'rgazmali, amaliy, og'zaki metodlari, tahlil va sintez, aqliy hujum metodlaridan foydalanildi. Tarbiyachining raqamli kompetentligini oshirish bo'yicha mavjud ilmiy va

amaliy materiallar o'rganildi, tahlil qilindi va ularning mazmuni umumlashtirildi. Zamonaviy davrda bolalarga ta'lim berish uchun ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradigan texnologiya kerak. Masalan:

“Axlal yuk mashinasi” interfaol o'yini. Ta'lim yo'nalishlarining integratsiyasi: kognitiv rivojlanish, nutqni rivojlantirish, jismoniy rivojlanish.

Ta'limiy maqsadlar: Bolalarda chiqindilar turlari, ularni saralash va qayta ishlash usullari haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish.

Interfaol o'yin jarayoni orqali ekologik madaniyat va ongli munosabatni rivojlantirish. Harakat faolligi va muvofiqlashtirish ko'nikmalarini mustahkamlash.

O'yin jarayoni. O'yin boshida ekranning markazida turli xil chiqindilar uchun mo'ljallangan beshta konteyner joylashtiriladi. Dastlab bolalarga qaysi turdagi chiqindilarni yig'ish kerakligi haqida vazifa e'lon qilinadi. O'yinchining birinchi vazifasi – berilgan topshiriqqa mos keluvchi to'g'ri konteynerni tanlashdir. Shundan so'ng bola tanlangan konteynerga mos chiqindilarni yig'ishni boshlaydi.

To'g'ri konteyner tanlangach, uni tashuvchi yuk mashinasi ekranda paydo bo'ladi. Ekranning yuqori qismida chiqindilar tushiriladigan uchta quvur joylashgan bo'lib, bolaning maqsadi yuk mashinasini mos quvur ostiga to'g'ri boshqarish va chiqindilarni konteynerga yuklashdan iborat.

Yuk mashinasini boshqarish jarayonida bola chapga va o'ngga harakatlanadi. Chiqindilarni konteynerga tushirish uchun esa tanlangan obyekt ostida ikkala qo'lini ko'tarishi talab etiladi. Ushbu harakatlar bolalarda jismoniy faollikni oshirish bilan birga, diqqat, tezkor fikrlash va muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur interfaol o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni mustahkamlash, chiqindilarni to'g'ri saralashga o'rgatish hamda o'yin orqali ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.



1-rasm. “Axlal yuk mashinasi” interfaol o'yini

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida interfaol ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Xususan, "Axlat yuk mashinasi" interfaol o'yini orqali bolalarning chiqindilarni turlarga ajratish, ekologik faoliyatni rejalashtirish va amaliy harakatlar orqali bajarish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol o'yin jarayonida bolalar chiqindilarni ranglar va belgilari asosida farqlashni tezroq o'zlashtirdilar hamda qaysi turdagi chiqindi qaysi konteynerga tashlanishini mustaqil aniqlay olish darajasiga yetdilar. O'yin davomida yuk mashinasini boshqarish, to'g'ri quvur ostiga harakatlanish va chiqindilarni konteynerga joylashtirish jarayoni bolalarda diqqatni jamlash, tezkor fikrlash hamda muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Shuningdek, o'yin jarayonida nutqni rivojlantirish yo'nalishi ham samarali integratsiyalandi. Bolalar chiqindilar nomlarini to'g'ri talaffuz qilish, ularning xususiyatlari haqida fikr bildirish hamda o'yin vazifalarini og'zaki izohlash orqali lug'at boyligini kengaytirdilar. Jismoniy rivojlanish nuqtayi nazaridan esa bolalarning chapga va o'ngga harakatlanishi, qo'llarini ko'tarish kabi faol harakatlari ularning motorika va koordinatsiya ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, interfaol ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan ekologik mazmundagi o'yinlar bolalarda ekologik ong, mas'uliyat va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tajriba jarayonida bolalarning ekologik faoliyatga bo'lgan qiziqishi oshgani, mustaqil qaror qabul qilishga intilishi va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari rivojlangani aniqlandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari interfaol o'yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyani samarali tashkil etishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv bolalarda nafaqat ekologik bilimlarni, balki ularning amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tashkilotchilik ko'nikmalarini samarali shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, "Axlat yuk mashinasi" interfaol o'yini bolalarda chiqindilarni turlarga ajratish, ekologik faoliyatni ongli ravishda tashkil etish hamda tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida interfaol o'yinlar orqali bolalarning ekologik bilimlari mustahkamlanib, ularning mustaqil fikrlash, diqqatni jamlash, tezkor qaror qabul qilish hamda jismoniy faolligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Shuningdek, ta'lim yo'nalishlarining integratsiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning nutqiy rivoji, ijtimoiy faolligi va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim

ahamiyat kasb etdi. Olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

✓ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya jarayoniga interfaol ta'lim resurslari va raqamli o'yinlarni tizimli ravishda joriy etish;

✓ pedagoglar uchun interfaol ekologik o'yinlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish;

✓ bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ekologik mazmundagi multimedia resurslarining turini kengaytirish;

✓ ota-onalarni ekologik tarbiya jarayoniga faol jalb etish orqali bolalarda ekologik madaniyatni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan ekologik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish kelajak avlodda ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish g'oyalarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligining «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr) Tosh-2022. 52-b.
2. N.M. Quchqorova, I.R.Avazmetova, D.U.Ikramova, Bolalami tabiat bilan tanishtirish [Matn] : darslik / Toshkent: Bookmany print, 2023. 157- b.
3. R.Sh.Aleuova, Ways Of Introducing Preschool Children To Nature, American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381. Vol. 2 Issue 10, February– 2025, Pages: 259-261.
4. "Ilm yo'li" variativ dastur. (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash), T.:2018.
5. Е.И.Мулюкина, Н.А.Сухова Экологическое воспитание детей дошкольного возраста средствами интерактивных игр.
6. И. И. Пичугина. Экологика. Методическое пособие для подвижных занятий «Играй и развивайся» /: ИП Мякотин И. В., 2019.
7. Сейтмуратова, В., & Тлеумбетова, К. (2020). О реализации приоритетных направлений воспитания дошкольников средствами природы. научный электронный журнал «матрица научного познания», 226.
8. V.J.Seitmuratova, (2024). Development of creative thinking of children from preschool 5-7 years old through karakalpak folk tales and children's songs. International Journal of Pedagogics, 4(04), 101-104.
9. Seitmuratova, V. J. (2024, September). The development of creative thinking in preschool children aged 5-7 through multimedia-based karakalpak folk tales and children's poems. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 9, pp. 16-19).
10. V.J.Seitmuratova, Developing speech of preschool children through fairy tales. "Экономика и социум" №6(133)-2 2025 www.iupr.ru. 824-bet.
11. V. J.Seitmuratova, Competence-based approach to children's creativity through karakalpak folklore in the republic of Karakalpakstan. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 18.
12. Z.P.Klicheva, V.J. Seitmuratova Mektepke shekemgi jastag'ı balalardıń tayanish kompetenciya ların qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti. Муғаллим хэм үзликсиз билимлендириў. ISSN 2181-7138 Илимий-методикалық журнал. № 2/3 Нөкис — 2025. 302-309-betlar.